



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA TA’LIM VAZIRLIGI**  
**THE MINISTRY OF PRESCHOOL EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

100070, Toshkent shahar, Mirobod tumani, Amir Temur shoh ko‘chasi, 17  
Tel.: (998 71) 207-04-08, 207-04-07 www.mpe.uz, el. pochta: devon@mpe.uz, mdo@exat.uz

25.11.2021 y. 04-03/3-1053

**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Hisob palatasiga**

*nusxasi:* **O‘zbekiston Respublikasi**  
**Vazirlar Mahkamasiga**

**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Adliya vazirligiga**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘grisida”gi farmonida berilgan topshiriq ijrosini ta’minlash maqsadida Maktabgacha ta’limni boshqarishning axborot tizimini (EMIS) yanada takomillashtirish va rivojlantirish, ma’lumotlarni kiritish va tezkor almashish uchun mobil ilova ishlab chiqildi.

Ushbu mobil ilova Maktabgacha ta’lim vazirligining “Bolalar bog‘chasi” namunaviy axborot tizimini negizida ishlab chiqilgan bo‘lib, “Bolalar bog‘chasi” axborot tizimining texnik topshiriq loyihasiga Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini rivojlantirish vazirligining 2020-yil 10-iyuldagi Ez-10-8/3947-son xati, “Kiberxavfsizlik markazi” DUKning 2021-yil 28-apreldagi 01-18-01/692-son xatlari bilan ekspert xulosasi olingan.

“Maktabgacha ta’limni boshqarishning axborot tizimi”ni Mobil ilovasini yaratish bo‘yicha Vazirlikning 2020-yil 20-oktabrda tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasiga muvofiq loyihani amalga oshiruvchi tashkilot etib vazirlik huzuridagi “Axborot va pedagogika texnologiyalari innovatsion markazi” tanlangan.

Shuningdek, Maktabgacha ta’limni boshqarishning axborot tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish, ma’lumotlarni kiritish va tezkor almashish uchun Mobil dasturi amaliyotga sinov tariqasida joriy etilgan bo‘lib, **“Google play”** mobil ilova do‘konidan **“Bolalar bog‘chasi”** nomi bilan (<https://play.google.com/store/apps/details?id=uz.itsolutions.mdo.mdo&hl=ru>) yuklab olish imkoniyati yaratilgan.

Shu bilan birga, Vazirlik tizimidagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktori va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti” tomonidan Moodle platformasiga negizida **my.mdomoi.uz** – elektron tizimi

ishlab chiqilgan hamda mobil ilovadan foydalanish uchun video darsliklar “Bolalar bog‘chasi” tizimi foydalnuvchilari uchun joylashtirilgan ([https://mt.mdomoi.uz/data/modules/8f1de019a47eff3ebb9f427a67db79c2/media/696\\_video.mp4](https://mt.mdomoi.uz/data/modules/8f1de019a47eff3ebb9f427a67db79c2/media/696_video.mp4)).

**Vazir o‘rinbosari**



**N.Muslitdinov**